

IQTISODIY XAVFSIZLIKDA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

L.N.Xalikova

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası professori*

Umirkulov Olmos Sanjar o'g'li

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
Iqtisodiyot fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Quyida yozilgan maqola hozirgi kunda eng dolzarb mavzulardan biriga bag'ishlangan bo'lib, unda iqtisodiy xavfsizlikni amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas holda ijro etishning chora tadbirlari, bu yo'nalishning kamchiliklari va ularni bartaraf etish maqsadida yechimlar muhokama qilindi.*

Kalit so'zlar: *Raqamli iqtisodiyot, AKT, "Raqamli O'zbekiston -2030", "Digital Prosecution", elektron hukumat, kiber tahdid*

Kirish.

Bugungi kunda jahonda raqamli transformatsiya davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida beqiyos rol o'ynamoqda. Ayniqsa, iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish orqali nafaqat samaradorlik va qulaylik, balki iqtisodiy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash imkoniyati ortmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining amaliyotga joriy etilishi, davlat boshqaruvida byurokratiya kamayishi, axborot almashinuvi va xizmatlarning elektron shaklda berilishi aynan shunday muhim qadamlardandir. Raqamlashtirish orqali iqtisodiyotning raqamli bo'linmalari kengayib, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar asosida yangi tarmoqlar shakllanmoqda. Bu holat esa iqtisodiy o'sish, kichik va o'rta bizneslarni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish hamda raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Shuningdek, davlat va prokuratura organlarida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish huquqiy hamda moliyaviy tranzaksiyalarni, byurokratik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali korrupsiya va firibgarlik kabi xavflarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Masalan, 2025-yil 11 mayda imzolangan qarorga ko'ra, "Digital Prosecution – 2030" strategiyasi doirasida prokuratura faoliyati raqamlashtirilmoqda. Bularga, "Raqamli Prokuror" yagona axborot tizimi, davlat idoralari va mansabdor shaxslar ustidan elektron shaklda monitoring va nazorat imkoniyati. Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish faqat texnologik yangilanish emas, balki iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, korrupsiya va noqonuniy iqtisodiy faoliyatga qarshi kurashish, davlat-

jamiyat munosabatlarini shaffof va ishonchli qilish hamda raqobatbardosh, barqaror iqtisodiy muhitni shakllantirish yo‘lida muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Raqamlashtirish va iqtisodiy xavfsizlik masalalari bo‘yicha so‘nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya davlat barqarorligi va iqtisodiy muhofazani kuchaytiruvchi strategik jarayonga aylanmoqda. Masalan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bo‘yicha hukumat hisobotlarida raqamli infratuzilmani kengaytirish, davlat xizmatlarini to‘liq elektron shaklga o‘tkazish va ma‘lumotlar almashinuvi tizimini yagona platformaga birlashtirish iqtisodiy xavfsizlikning asosiy omillaridan biri sifatida talqin qilinadi. Ushbu hujjatlarda ayniqsa, ma‘lumotlar xavfsizligi, kiberxavfsizlik va iqtisodiy sektorlarda raqamli monitoring tizimlarini joriy etish dolzarb ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida, xususan, “Digital Prosecution – 2030” strategiyasida iqtisodiy jinoyatlar, soxtalashtirish, moliyaviy firibgarliklarni aniqlashda sun‘iy intellekt va raqamli tahlil vositalarining joriy etilishi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilishi alohida qayd etiladi. Bu strategiya raqamli audit, elektron nazorat va tezkor ma‘lumotlar almashinuvi mexanizmlarining iqtisodiy xavflarni oldindan aniqlashdagi o‘rnini kuchaytirgan.

Bundan tashqari, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va BMTning raqamli iqtisodiyot bo‘yicha hisobotlarida raqamlashtirish iqtisodiy xavfsizlikning global ko‘rsatkichlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Xususan, raqamli transformatsiya investitsion muhitni yaxshilashi, davlat moliyaviy tizimining shaffofligini oshirishi va iqtisodiy jinoyatlar xavfini sezilarli darajada kamaytirishi ilmiy asoslar bilan bayon qilingan. Ushbu xalqaro tahlillar O‘zbekistonning raqamli modernizatsiya borasidagi yondashuvlari bilan uyg‘unlashadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot bir nechta sodda metodlar asosida olib borildi. Unda nazariy tahlil, empiric usul, qiyosiy tahlil va analitik-sintez usullari orqali tahlillar amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar.

O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti jadal rivojlanmoqda va so‘nggi yillarda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori yalpi ichki mahsulotning o‘sishida muhim rol o‘ynamoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli infratuzilma va elektron davlat xizmatlariga katta sarmoya kiritish uchun katalizator bo‘lib xizmat qilmoqda. Ammo shunga qaramay, qishloq joylarida raqamli savodxonlikning cheklanganligi, AKT sohasidagi me‘yoriyhuquqiy bazaning rivojlanmaganligi va xususiy sektor ishtirokining past darajasi kabi qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Bizga ma'lumki iqtisodiy xavfsizlikni amalga oshirishda raqamlashtirish sohasi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini sektoriga uzviy ravishda bog'langan. AKT sektorinig ortda qolgan yillardagi statistic ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, unda 2023-yilda AKT sektori yalpi ichki mahsulotga (YaIM) o'zining 2,1% ulushini qo'shgan. O'tgan yil hiosblaruga ko'ra mamlakatimizda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 10551 taga yetgan. Hozirgi davrga kelib sanoat rivojlanishining eng asosiy bo'g'inlaridan bo'lgan IT-Park hozirda 2500 dan ortiq kompaniyalarni o'zida jamlagan. Yana shuni aytish joizki, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda raqamli hukumat tarmoqlari va zamonaviy texnologiyalar yordamida ma'lum bir darajada muvafaqqiyatga erishish mumkin. Lekin zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas tarzda AKT sektorini rivojlantirish eng ko'zda tutilgan chora taadbirlardan biri hisoblanada. Raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasida AKT sektori birgina 2022-yilda eksport hajmi 140 million AQSh dollaridan 344 million AQSh dollariga yetgan. Bu ko'rsatkichlar bizga electron hukumat borasida jahon mamlakatlari orasida 57-o'rinni bergan bo'lsada, lekin bu sohaning joriy etish darajasi haligacha pastligicha qolmoqda.

Qonun-hujjatlar va davlat dasturlarining amaliy ijrosi iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani kuzatildi. Soliq qo'mitasi, bojxona tizimi, davlat xaridlari va prokuratura organlarida raqamli platformalar joriy etilishi moliyaviy operatsiyalar ustidan real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini berdi. Elektron soliq tizimining kengayishi yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga, tushumlarning oshishiga xizmat qildi. Bu esa shaffoflik va nazorat, iqtisodiy xavfsizlikning muhim omillaridan biri sanaladi. "Digital Prosecution", "Elektron hukumat", "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" kabi tizimlar turli idoralarda inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirib, huquqbuzarliklarni aniqlashni osonlashtirdi. Raqamli kuzatuv va avtomatik tahlil mexanizmlari korrupsion risklarni pasaytirishga yordam bermoqda. Buning samarasi o'laroq tizimda korrupsiya va firibgarlik xavflari kamaymoqda. Bank tizimida elektron to'lovlar ulushi ortib borayotgani, davlat xizmatlarining ko'p qismi onlaynga o'tgani iqtisodiy muhitning barqarorligini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi bo'yicha talablar kuchaytirilgani iqtisodiy tizimni tashqi kiberxavflardan himoyalashga hamda iqtisodiy jarayonlar tezlashishiga va xavfsizligi oshishiga yordam bermoqda.

Umuman olganda, kiber tahdidlarning eng katta qismi mamlakatning AKT (51,40%), Davlat (24,20%) va Moliyaviy (13,60%) sektorlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, markaz xodimlari tomonidan 500 mingta IP-manzil va "Uz" zonasidagi 100 mingta domen haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek, 129 mingdan ortiq veb-saytlarni monitoring qilish bilan shug'ullanadilar. Umumiy statistik ma'lumotlarga kelsak, Kasperskiy

laboratoriyasining interaktiv kiber-tahdid xaritasiga ko'ra, axborot sektoriga hujumlar soni bo'yicha O'zbekiston 2025-yil 10-yanvar holatiga ko'ra 43-o'rinni egallaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, 2024-yil 30-dekabrda 2025-yil 5-yanvargacha bo'lgan bir hafta ichida O'zbekistonga nisbatan o'rtacha 27879 ta tarmoq hujumi amalga oshirildi.

Xulosa va takliflar.

Quyida berib o'tilgan takliflar bu sohaning yanada jadal rivoj topishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz. Raqamlashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiy xavfsizligi uchun balki butun mamlakat xavfsizligi uchun eng asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Davlatning ichki ma'lumotlarining chetga sezib chiqish esa eng kulfatli ishlardan hisoblanadi. Bu ma'lumotlardan yomon maqsadlarda foydalanish kutilgan ishlardan hisoblanadi. Shuning uchun AKT sohasi nafaqat iqtisodiy tomondan balki mamlakatning barcha sohalarini qamrab olishi zaruriy holatga kelib qolgan paytga yetib keldik.

□ Raqamli xizmatlarni ommalashtirishni davom ettirish. Aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun raqamli xizmatlardan foydalanish jarayonini yanada soddalashtirish infratuzilmaning barqaror rivoji uchun muhim.

□ Kiberxavfsizlikni kuchaytirish. Katta hajmdagi ma'lumotlar oqimi ortib borayotgan bir paytda himoya tizimlarini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

□ Davlat xizmatlarini to'liq raqamli formatga o'tkazishni jadallashtirish. Bu byurokratik jarayonlarni qisqartiradi va iqtisodiy xavfsizlikka tahdid bo'ladigan inson omilini kamaytiradi.

□ Raqamli iqtisodiyot bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash. Mahalliy ekspertlar tomonidan olib borilayotgan tahlillar siyosiy va iqtisodiy qarorlarni yanada aniqroq shakllantirishga yordam beradi.

□ Hududlarda raqamli infratuzilma tengligini ta'minlash. Internet tezligi, texnik vositalar va raqamli o'qitish imkoniyatlari barchaga bir xil bo'lmas ekan, raqamlashtirishning umumiy samaradorligi to'liq sezilmaydi.

Yurtimizda so'nggi yillarda raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Statistika shuni ko'rsatadiki, raqamli xizmatlar ulushi ham, elektron hukumat tizimining samaradorligi ham izchil o'sib bormoqda. Bu esa davlat boshqaruvi shaffofligi, soliq tushumlarining barqarorligi va iqtisodiy jarayonlarning tezkor nazorat qilinishini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik bo'yicha qayd etilayotgan hodisalar sonining yil sayin kamayib borayotgani davlatning raqamli muhitni himoya qilishga qaratilgan amaliy choralar samaradorligidan dalolat beradi. Umumiy natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish iqtisodiy

xavfsizlikning barcha asosiy yo‘nalishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda va kelajakda uning roli yanada oshishi tabiiy.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. — Toshkent: Prezident qarori PQ–6079.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). Elektron hukumat tizimini rivojlantirish to‘g‘risida qaror. — VMQ–402.
3. Statistika agentligi. (2023). O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari bo‘yicha yillik hisobot. — Toshkent.
4. Akhmedov, J. (2021). O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish istiqbollari. — “Iqtisod va jamiyat” jurnali, №6.
5. Turayev, B. (2022). Raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash masalalari. — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy to‘plami.
6. <https://infocom.uz/articles/ozbekistonda-kiberxavfsizlik-rivojlanish-darajasining-tahlili> / O'zbekistonda kiberxavfsizlik rivojlanish darajasining tahlili
7. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_digital-economy-study_uz.pdf